

O‘ZBEKISTON MUSIQASHUNOSLIGIDA TA’LIM METODOLOGIYASINING ILK BOSQICHLARI

Tashpulatov Muzaffar Fayzullayevich

San’atshunoslik fanlari bo’yicha (PhD) falsafa doktori,

**O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi a’zosi,
musiqashunos**

muzaffar-tashpulatov@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston musiqashunosligida ta’lim metodologiyasining ilk shakllanish bosqichlari tahlil qilinadi. XX asr boshlarida yuzaga kelgan madaniy va ma’rifiy islohotlar, musiqiy ta’lim tizimining institutsionallashuvi hamda ilmiy-metodik asoslarning shakllanish jarayonlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, milliy musiqiy meros va an’analarning ta’lim tizimiga ta’siri, madaniy muassasalar faoliyati va ilk musiqiy tadqiqotlarning ahamiyati yoritiladi. Tadqiqot natijalari O‘zbekistonda musiqiy ta’lim metodologiyasining shakllanishida tarixiy va madaniy omillar muhim o‘rin tutganini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: musiqashunoslik, musiqiy ta’lim, metodologiya, milliy musiqiy meros, madaniy muassasalar, ta’lim tizimi, tarixiy taraqqiyot, ilmiy tadqiqot

“THE INITIAL STAGES IN THE DEVELOPMENT OF EDUCATIONAL METHODOLOGY IN UZBEK MUSICOLOGY”

Tashpulatov Muzaffar Fayzullayevich

PhD (Doctor of Philosophy) in Art Studies,

Member of the Union of Composers and Musicologists of Uzbekistan,

Musicologist

muzaffar-tashpulatov@mail.ru

Abstract: This article examines the early stages of the formation of educational methodology in Uzbek musicology. It analyzes the cultural and educational reforms of the early 20th century, the institutionalization of music education, and the development of scientific and methodological foundations. The study also highlights the role of national musical heritage and traditions in shaping the education system, as well as the activities of cultural institutions and early musicological research. The findings demonstrate that historical and cultural factors played a significant role in the formation of music education methodology in Uzbekistan.

Keywords: musicology, music education, methodology, national musical heritage, cultural institutions, education system, historical development, scientific research

XX asr boshlari Turkiston tarixida madaniy va ma'rifiy islohotlar davri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Bu davrda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, milliy kadrlar tayyorlash va ilmiy bilimlarni ommalashtirish masalalari dolzarb bo'lib qoldi. Shu maqsadda Turkiston Avtonom Respublikasi Maorif komissarligi tashkil etildi. Ushbu muassasa huzurida faoliyat yuritgan ilmiy tuzilmalar milliy madaniyat, til va san'at rivojiga katta hissa qo'shdi. Uning huzurida "Muzika-etnogafik bilim hay'ati", "O'zbek bilim hay'ati", "Teatr-etnofafik bilim hay'ati" hamda "Etnogafik bilim hay'ati" bulgan.

Elbek raisi bo'lgan "O'zbek bilim hay'ati" tarkibida F. Yunusov, K.K.Yudaxin, Ye.D.Polivanov, F.Zafariy kabi olim va yozuvchilar bo'lib, ularning asosiy vazifasi

yangi maktablar uchun o'zbek tilida darsliklar, o'quv-metodik qo'llanmalar va ilmiy-ommabop asarlar yaratish edi. "Xay'at" milliy folklor namunalarini to'plab va chop etish va yangi o'zbek adabiy tilining shakllanishida faol ishtirok etdi.

Shu bilan birga, mazkur hay'at milliy folklor namunalarini yig'ish, ularni ilmiy jihatdan tahlil qilish va nashr etish ishlarini amalga oshirgan. Bu faoliyat o'zbek xalq og'zaki ijodining saqlanishi va ilmiy o'rganilishida muhim o'rin tutdi. Mazkur jarayon yangi o'zbek adabiy tilining shakllanishi va uning me'yorlashuviga ham kuchli ta'sir ko'rsatdi.

1921-1924-yillarda Turkistondagi maorif institutlarida ham musiqa darsi majburiy predmet sifatida o'qitish boshlandi. Birok bu institutlarda o'quv rejalari asosan rus bilim yurtlari uchun mo'ljallangan tarzda tuzilgan bulib, asosiy predmetlar nota savodi, rus musiqa nazariyasi va tarixi, inkilobiy mazmundagi rus xoridan iborat edi. Farg'onada 1921/22 o'quv yilida faoliyat ko'rsatgan milliy professional musiqachilar tayyorlash musiqa maktabida 7 ta sinf bulib, ular: fortepiano, skripka va alt, violonchel, kontrabas, damli asboblari, xor sinfi va xalk kuylaridan iborat edi. Shu asosda O'zbek milliy musiqa madaniyatini "shiddat" bilan chetlashtirilib, uning o'rniga "baynalmilal" nikobi ostida rus musikiy madaniyatini kiritish dastlabki yillardayok boshlangan edi.¹

Rossiyada yuz bergan siyosiy-inqilobiy o'zgarishlar bevosita musiqa san'atiga ham o'z ta'sirini ko'rsata boshladi. Ushbu davrda sobiq Sho'ro hukumatining musiqaga tegishli birinchi dekret (qaror)larini chiqarishi muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Mazkur dekret 1918-yil 12-iyulda tasdiqlanib, unda milliy konservatoriyalarni tashkillashtirish masalasi qo'yilgan edi.

Uning ijrosi sifatida Rusiyada Xalq komissariati qoshida Petrograd va Moskva konservatoriyalari faoliyati yo'lga qo'yildi. Qarorning ijrosi sifatida Turkiston Xalq

¹ Yuldoshev S. O'zbekistonda muzika tarbiyasi va ta'limining rivojlanishi. - T., 1985, 67-bet. 2 UzR MDA, 34-fond, 1-ruyxat, 1716-yipia jild, 16-varaq

Universiteti (Hozirgi Milliy Universitet) tarkibida Turkistonda ham birinchi konservatoriya – Turkiston Xalq konservatoriyasi 1918-yildan e'tiboran o'z faoliyatini boshladi. V.A.Karelin uning birinchi direktori etib tayinlandi. Konservatoriyada o'z navbatida yevropacha andozalar bilan birgalikda sharqona-milliy ta'lim tizimi ham yo'lga qo'yilgan edi.

Mazkur Xalq konservatoriyasining asosiy vazifasi xalqqa musiqadan boshlang'ich ma'lumot berish, birorta cholg'u-sozda chalishni o'rgatish va xonandalik mutaxassisligidan saboq berishdan iborat edi. O'qish muddati va dasturi aniq belgilanmaganligi uchun har bir ustoz-pedagog o'quvchi-talabani qobiliyati va imkoniyatini nazarga olgan holda dars berganlar. O'qishni ikki yo'nalishda joriy etish: ya'ni o'zbek musiqasini og'zaki o'zlashtirish va nota uslubi hamda ko'p ovozli musiqa nazariyotini o'rganishdan iborat edi.

Bu g'oyalarni amalga oshirish uchun maxsus dastur tuzildi va shaharda istiqomat qiluvchi mashhur o'zbek san'atkorlaridan: hofiz Mulla To'ychi Toshmuhammedov, dutorchi Abdusoat Vahobov, g'ijjakchi Qurbonxon Hakimov, naychi Imomjon Hakimov, g'ijjakchi Solixon Xoji kabi ustozlar yoshlarga saboq berishga taklif qilindi. V.Uspenskiy zimmasiga talabalarga nota yozuvi va musiqa savodi (nazariyoti)dan dars berish yuklandi.

Umuman Turkiston Xalq konservatoriyasi yoshlarni o'qishdan tashqari, pedagoglar va malakali o'quvchilarni kuchi bilan simfonik va damli orkestrlar, opera studiyasi va turli kamer orkestrlar tashkil qilib, muntazam ravishda "Etnografik konsertlar" va "Sharq musiqasi kechalari" o'tkazib bordilar.

1925 yilda Turkiston Xalq konservatoriyasi Turkiston musiqa texnikumiga aylantirildi.

1919 yili Turkiston Xalq Maorif komissariyati qo'mitasi va uning Musiqa bo'limi qoshida badiiy etnografik komissiya tashkil qilinadi. Unda V. Uspenskiy rahbarligida N.Mironov va G'.Zafariylar komissiya a'zolari sifatida Turkiston

xalqlarining xalq ijodiyotini o'rganish va musiqiy ma'rifiy ishlarni jonlantirish borasida jonbozlik ko'rsatdilar.

1920-yilda amirlikning tugatilib, Buxoro Xalq Sotsialistik Respublikasining tashkil etilishini muhim tarixiy voqea sifatida baholash mumkin. Zero, endilikda milliy ma'rifatchi va ziyolilar ulkan vatanparlik ruhi bilan yurt ravnaqi yo'lida jonbozlik ko'rsatdilar. Yangi Buxoro hukumatining ijtimoiy-madaniy hayotida faol ishtirok etib kelayotgan Fitrat tashabbusi bilan 1921-yilda "Sharq musiqa maktabi" tashkil qilinishi muhim madaniy hodisa bo'ldi. O'quv dargohi uchun Fitrat dastlab o'z uyini ajratib berishi va uning faoliyatiga bevosita mutassadilik qilishi, shuningdeq maktabga Ota Jalol, Ota G'iyos, Levicha, Domla Halim Ibodov, Shohnazar Sohibov, Boboqul Fayzullayev, Ma'rufjon Toshpo'latov kabi mashhur hofizu maqomshunoslarni jalb etishi, Buxoro ziyolilarining musiqa maktabidan ko'zlayotgan maqsadlari naqadar ulug' ekanligidan dalolat beradi.

Bu dargohda asosan mumtoz musiqa – Shashmaqom targ'iboti va ta'limi yo'lga qo'yildi. 1921-yil martdan BXSRda turk (o'zbek) tilining davlat tili deb e'lon qilinishi, Davlat teatrining tuzilishi (1921), millat mustaqilligi yo'lidagi sharaflilik harakatlardan biri sifatida baholash mumkin. Bir so'z bilan aytganda ushbu davr, ya'ni 20-40-yillar oralig'i, tom ma'noda mintaqada ko'tarinkilik milliy tiklanish va milliy uyg'onish davri bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi.

1925 o'quv yilidan boshlab Buxoroda "Sharq musiqa maktabi"ni o'quv dasturiga Yevropa nota yozuvi, solfedjio, musiqa nazariyasi, tarixi fanlari bilan Yevropa cholg'u sozlarni barcha turlari kiritildi. Ularda dars berish uchun asosan Rossiya shaxarlaridan mutaxassislar taklif qilindi. Shu davrdan boshlab musiqa maktabda o'quv jarayoni ikki –milliy va yevropacha uslubiy yo'nalishlarida olib borildi.

Turli yillar shu maktabni bitirgan o'quvchilar kelgusida musiqa texnikumi va konservatoriyalarda o'qib, yuqori malakali mutaxassislar bo'lib yetishib chiqdilar va o'zlarining ish faoliyatlari bilan zamonaviy o'zbek musiqa san'atini rivojlantirish jarayoniga o'z hissalarini qo'shdilar.

Respublikada yevropacha tizimda xonanda, sozanda, kompozitor va musiqashunoslarni tayyorlash uchun shaharlarda 3 bosqichli maxsus davlat musiqa maktablari, texnikumlar (hozirgi kollejlar) konservatoriya va san'at institutlari birin-ketin tashkil qilina boshlandi. Masalan 1924-25-o'quv yilida Turkiston Xalq konservatoriyasi zaminida, "Toshkent davlat musiqa texnikumi" internati (kelajakdagi Hamza nomidagi musiqa o'quv yurti), so'ngra V.Uspenskiy nomidagi iqtidorli bolalar akademik litseyi tashkil topdi. Mazkur o'quv dargohi rasmiy ravishda tasdiqlangan o'quv rejasi va yevropacha uslubda tuzilgan dasturlar bilan barcha cholg'u-sozlar va xonandalik bo'yicha malakali o'qituvchilar bilan ta'minlandilar.

1925-yilda Xiva bolalar musiqa maktabining birinchi direktori va muallimi Matyusuf Xarratov (Muhammad Yusuf Devon)ning shoir va adabiyotshunos Mullo Bekjon Rahmon o'g'li bilan hamkorlikda yaratgan "Xorazm musiqiy tarixchasi" kitobi Moskvada arab alifbosida nashr etildi. Bu asar o'zbek musiqasi, xususan maqomlarning ilmiy va amaliy asoslariga oid ilk tadqiqot sifatida musiqashunosligimiz tarixida alohida o'rin tutadi.

1928-yilda Samarqand musiqa va xoreografiya instituti o'z faoliyatini boshladi. Institutning rahbari N.Mironov. Institut o'z oldiga xalq ijodiyotini tadqiq etish, milliy ashula va raqs san'atlarini o'rgatish, musiqa tarixiga oid ma'lumotlari to'plash hamda nota namunalarini yaratishdek ma'rifiy vazifalarni maqsad qilib qo'ydi.

Ana shu qo'yilgan vazifalarni amalga oshirish uchun N.Mironov A.Fitrat maslahati bilan Buxorodan: Ota Jalol Nosirov, Domla Halim Ibodov, Abdurahmon Umarovni; Xorazmdan: Matyusuf Xarratovni, Samarqanddan Abdulaziz Rasulovni,

Farg‘ona vodiysidan Ahmadjon Umirzoqov, Abduqodir Ismoilov kabi ustozlarni va o‘zbek adabiyotidan dars berishga shoir, dramaturg G‘ulom Zafariylar taklif qilindi.

Institutning ilmiy faoliyatida bir talay ijobiy ishlar qilindi. Aspirantlar M.Ashrafiy “Buxoro xalq qo‘shiqlari”, T.Sodiqov “Farg‘ona xalq qo‘shiqlari”, Sh.Ramazonov “Xorazm xalq qo‘shiqlari” nomli to‘plamni 1931 N.Mironov tahririda hamda 1931-yilda bevosita o‘zining qalamiga mansub kitoblari nashr etildi.

1926-yildan e’tiboran Muhiddin Qoriyoqubov rahbarligidagi (etnografik) milliy ijrochilar (ashulachi va cholg‘uchilar) guruhi faoliyat yurita boshlagan. 1929-yildan Musiqali teatr nomini oldi. 1939-yilda unga opera, 1959 akademik 1966-yilda Katta teatr maqomi berilgan. Hozirda Alisher Navoiy nomidagi Akademik opera va balet teatri sifatida faoliyat olib bormoqda.

1932-yilda San’atshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti tashkil qilindi. Shu yilning avgust oyida uning san’at seksiyasi ham o‘z faoliyatini boshladi. 1930-yili O‘zbekistonning poytaxti Samarqanddan Toshkentga ko‘chib o‘tishi tufayli Samarqand musiqa va raqs instituti ham 1932-yili Toshkentga ko‘chib o‘tdi. Shu munosbat bilan institutda musiqa va xoreografiyadan o‘qitish jarayoni to‘xtatildi. Institutni bitirmagan o‘quvchilar Toshkentdagi o‘quv dargohlariga joylashtirildi. Institut “O‘zbekiston davlat san’atshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti”ga aylantirildi. Mazkur O‘rta Osiyoda eng yirik ilmiy-tadqiqot intitutida musiqa va boshqa san’at sohalari xodimlari ilmiy ish bilan birga aspirantlar tayyorlandi. Mazkur institut yillar davomida turli san’at sohalarida bir talay yuqori malakali olimlarni yetkazib berdi.

1934-yilda mashhur san’atkor Muxiddin Qoriyoqubov rahbarligida Moskva davlat konservatoriyasi qoshida “O‘zbek opera studiya”si tashkil topdi. Mazkur studiyaga opera teatri uchun akademik ovoz uslubida xonanda, dirijer va kompozitorlar tayyorlash masalasi yuklandi. Studiya 1952-yilga qadar ish faoliyatini davom ettirib, shu davrda ko‘plab opera xonandalarni tayyorlab berdi.

1935 yilda V.Uspenskiyning “Farhod va Shirin” musiqali dramasi yaratildi.

1934 yilda Toshkentda Oliy musiqa maktabi tashkil qilindi.

1936 yildan e'tiboran u Toshkent Davlat konservatoriyasi maqomini oldi. "Toshkent davlat konservatoriyasi" o'quv jarayonidan tashqari, dastlabki yillardanoq, V.Uspenskiy rahbarligida ilmiy-metodik kabinet ochildi. Mazkur kabinet o'zbek va boshqa xalqlarning musiqiy merosini ilmiy-nazariy o'rganish, notaga yozib olish, musiqiy san'at yutuqlarini omma orasida targ'ib qilish kabi masalalar bilan shug'ullandi. 1936-yilda Respublika O'zbek Davlat filarmoniyasi tashkil qilindi.

1937-yilda Moskvada O'zbek san'at Dekadasi bo'lib o'tdi.

1939 yili Toshkent davlat konservatoriyasi qoshida maxsus o'n yillik musiqa maktabi tashkil etilgan edi. 1949-yili O'zbekiston va Turkmaniston Xalq artisti kompozitor, musiqashunos-olim V.Uspenskiy vafotidan so'ng, maktabga uning nomi berildi va uning nomidagi akademik litsey-internati maqomini oldi.

O'zbekiston bastakorlar uyushmasi O'zbekiston bastakorlar uyushmasi (Mustaqillikdan avvalgi nomi "O'zbekiston kompozitorlar soyuzi") nodavlat ijodiy tashkilot sifatida O'zbekiston xalq komissarlari kengashining 1938-yildagi Qaroriga binoan 1939-yilda tashkil topdi.

Xulosa qilib aytganda, XX asr boshlarida Turkistonda tashkil etilgan ma'rifiy va ilmiy muassasalar milliy madaniyat va ta'lim tizimini rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi. Shuningdek, bu jarayonlar zamonaviy o'zbek madaniyati, tilshunosligi va ta'lim tizimining poydevorini yaratib berdi. Demak, mazkur davrdagi ilmiy-ma'rifiy islohotlar nafaqat o'sha davr uchun, balki keyingi avlodlar uchun ham muhim ahamiyat kasb etgan.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Yuldoshev S. O'zbekistonda muzika tarbiyasi va ta'limining rivojlanishi. - T., 1985, 67-bet. 2 UzR MDA, 34-fond.

2. Akbarov I.A. Musiqa lug‘ati – Toshkent: Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1987. – B.448.
3. Rizayev Sh: “Jadid dramasi” -“Sharq” nashriyot-matbaa konsernining bosh tahririyati. Toshkent – 1997 B. 67-70.
4. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. (O‘zME) – Toshkent, Davlat ilmiy nashriyoti. [2006–2008] – 563 b.